GUL NOMLARINI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING MA'NOVIY XUSUSIYATLARI

Matnazarov Shahzodbek Baxtiyarovich,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20213996

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tili fitonimik tizimida gul nomlarini ifodalovchi birliklarning ma'noviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida gul nomlarining etimologik kelib chiqishi, nominatsiya tamoyillari (morfologik, funksional, antroponimik, geografik va metaforik) hamda ularning lingvomadaniy xususiyatlari o‘rganiladi. Xususan, xonaki va bog‘ gullarining o‘zbekcha, xalqona va ilmiy nomlari qiyosiy tahlil asosida ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *fitonim, gul nomlari, nominatsiya, etimologiya, lingvomadaniyat, metafora, o‘zbek tili, xonaki gullar.*

Аннотация. *В данной статье анализируются семантические особенности единиц, выражающих названия цветов в фитонимической системе узбекского языка. В ходе исследования изучаются этимологическое происхождение названий цветов, принципы номинации (морфологические, функциональные, антропонимические, географические и метафорические), а также их лингвокультурные характеристики.*

Ключевые слова: *фитоним, названия цветов, номинация, этимология, лингвокультурология, метафора, узбекский язык, комнатные цветы.*

Abstract. *This article analyzes the semantic features of units expressing flower names in the phytonymic system of the Uzbek language. The study examines the etymological origins of flower names, principles of nomination (morphological, functional, anthroponymic, geographical, and metaphorical), as well as their linguocultural characteristics.*

Keywords: *phytonym, flower names, nomination, etymology, linguoculturology, metaphor, Uzbek language, houseplants.*

Kirish. Botanika fanida gulkosacha, gultoj, changchi va urug‘chiga ega bo‘lgan hamda generativ ko‘payish xususiyati bilan ajralib turuvchi o‘simliklar gulli o‘simliklar terminologik maydonini tashkil etadi. Lisoniy jihatdan bu guruh ildiz, poya, barg va meva kabi qismlarning nomlanishini qamrab oladi. Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, jahon florasida 533 ta oila va 250 mingdan ortiq turni birlashtirgan ushbu tizim lisoniy nominatsiyalar boyligi bilan ham tilshunoslik diqqat markazidadir.

Fitonimlar olamining o‘ziga xos xususiyatlari ularning nomlarida ham o‘z aksini topgan. Masalan, og‘irligi bilan ajralib turuvchi Seyshel palmasi, yashash davomiyligi bo‘yicha rekordchi sanalgan Kanar orollari ajdar daraxti yoki gigant o‘lchamli rafleziya kabi nomlar obyektning jismoniy va vaqtinchalik parametrlarini lisoniy muhrlaydi. Bunday lisoniy birliklar nafaqat o‘simlik turi, balki uning ekstralingvistik tabiati haqida ham tasavvur uyg‘otadi.

O‘zbekiston floronimik tizimi ham o‘ziga xos nominativ xilma-xillikka ega. Xususan, suv muhitida yashovchi nilufar, shuningdek, madaniy va estetik qiymatga ega bo‘lgan ko‘zagul, sallagul, chinnigul, jumagul kabi nomlar xalq lisoniy tafakkuri mahsulidir. Tibbiy-ijtimoiy ahamiyati bilan ajralib turuvchi na'matak va chakanda kabi gul nomlari esa milliy lingvomadaniyatda muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Gul nomlarini o‘rganish tilshunoslikning leksikologiya, etimologiya va lingvomadaniyatshunoslik sohalari kesishmasida joylashgan. Ilmiy adabiyotlarda fitonimlarning nominatsiya tamoyillari, semantik xususiyatlari va lingvomadaniy qiymati yuzasidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. O‘zbek tilshunosligida fitonimik leksikaning o‘rganilishiga doir ishlar ham mavjud bo‘lib, ular asosan o‘simlik nomlarining etimologiyasi va milliy-madaniy xususiyatlariga bag‘ishlangan.

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik, etimologik tahlil va lingvomadaniy metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar majmui gul nomlarini ifodalovchi birliklarning ma’noviy xususiyatlarini har tomonlama va tizimli o‘rganish imkonini beradi.

Muhokama va natijalar. Gul nomlarining semantik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular turli nominatsiya tamoyillariga asoslanadi: morfologik belgi, rang, hid, kelib chiqish geografiyasi, shaxs nomi va metaforik o‘xshatish. Quyida asosiy gul nomlarining ma'noviy xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Fikus.“Fikus” so‘zining ildizi qadimiy lotincha ficus so‘ziga borib taqaladi. Bu so‘z qadimiy Rimda nafaqat manzarali o‘simlikni, balki mevali daraxt bo‘lgan anjir (Fig)ni ham anglatgan. Etimologik nuqtayi nazardan, lotincha ficus so‘zi qadimiy semit tillaridagi feg yoki paggah (pishmagan anjir) so‘zlaridan o‘zlashgan degan ilmiy farazlar mavjud. Botanika fanida fikuslar oilasi (Moraceae)ga biz bilgan oddiy anjir ham kiradi. Shuning uchun ham ko‘plab Yevropa tillarida anjir va fikus so‘zlari bir xil o‘zakdan (inglizcha: fig, nemischa: feige, ruscha: figa) shakllangan.

Euforbia. Molochay (sutlama yoki ixroj) so‘zi o‘zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan kalka usulidagi o‘zlashma hisoblanadi. Ruscha moloko (sut) so‘zidan olingan bo‘lib, o‘simlikning poyasi yoki bargi uzilganda undan chiqadigan oq, yopishqoq suyuqlikka (sutga) ishoradir. Xalq tilida bu o‘simlik qadimdan sutlam yoki sutdor deb ataladi. Euforbia nomi qadimiy tarixga ega bo‘lib, Mavritaniya qiroli Yuba II o‘zining saroy tabibi Evforb (Euphorbus) sharafiga qo‘ygan. Evforb birinchi bo‘lib ushbu o‘simlikning shifobaxsh va zaharli xususiyatlarini o‘rgangan.

Yorongul (Geran). Lingvokulturologik, ham etimologik jihatdan eng boy tahlil obyektlaridan biri bo‘lib, u xalqona nominatsiyaning barqarorlashgan namunasi hisoblanadi. Struktur jihatdan qo‘shma so‘z shaklidagi ushbu nomning birinchi komponenti fors-tojik tilidagi yora (bilaguzuk, halqa, zargarlik buyumi) so‘zidan kelib

chiqqan bo‘lib, o‘simlik barglaridagi o‘ziga xos halqasimon naqshlar yoki gullarining aylana shaklidagi joylashuviga asoslangan morfologik nominatsiyani ifodalaydi. Lisoniy variantlilik nuqtayi nazaridan yorongul nomi fitonimik ierarxiyaning turli pog‘onalarida namoyon bo‘ladi: u jonli tilda yorongul, professional-sohaviy muomalada geran va ilmiy uslubda pelargoniya shaklida qo‘llaniladi. O‘zbek lingvokulturologiyasida bu gul oilaviy xotirjamlik va maishiy barqarorlik ramzi sifatida konnotativ ma'no kasb etgan.

Azaliya. Azaliya (lot. Azalea) birligi baynalmilal leksika qatlamiga mansub bo‘lib, ushbu nomning etimologik ildizi qadimgi yunoncha azaleos (quruq, qurigan) so‘ziga borib taqaladi va o‘simlikning o‘ziga xos morfologik-biologik xususiyatiga, u gullagunga qadar butasining quruq va jonsiz ko‘rinishiga asoslangan nominatsiyani ifodalaydi.

Gerbera. Gerbera (lot. Gerbera) birligi o‘zbek tili fitonimik tizimida o‘zlashma qatlamga mansub bo‘lib, XVIII asrda yashagan nemis botanigi Traugott Gerber sharafiga qo‘yilgan. Fanga birinchi marta 1737-yilda golland botanigi Yan Gronovius tomonidan kiritilgan. O‘zbek tilida bu birlik asosan baynalmilal termin sifatida o‘zgarmas shaklda qo‘llanilsa-da, lisoniy ongda Afrika moychechagi kabi birikmalar ham namoyon bo‘ladi.

Atirgul. Atirgul nomi etimologik jihatdan forscha atir "xushbo‘y hid" va gul so‘zlarining birikmasidan tashkil topgan hamda xalqimiz ongidagi go‘zallik va nafosatning oliy andozasini ifodalaydi. Ilmiy-botanik jihatdan ra'nodoshlar oilasiga mansub bo‘lgan ushbu o‘simlik o‘zbek tilida ra'no, vard kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Atirgullarning nominatsiya jarayoni juda rang-barang bo‘lib, u morfologik belgi asosida, rang belgisi asosida va holat hamda sirt tuzilishi asosida amalga oshiriladi.

Nargis (Narcissus). Nargis chuchmomadoshlar oilasiga mansub bo‘lib, o‘zbek va jahon adabiyotida eng ko‘p metaforalashgan fitonimlardan biridir. Nargis nomi yunoncha narke ya'ni "karaxtlik" yoki "hushdan ketish" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu o‘simlikning xushbo‘y hidi va tarkibidagi alkaloidlarning kishini mast qiluvchi xususiyatiga ishora qiluvchi fiziologik nominatsiyadir. O‘zbek tili lug‘at tarkibida u nargis // nargiz nomi bilan barqarorlashgan bo‘lib, sharq she'riyatida "yorning ma'sum ko‘zlari"ni ifodalovchi barqaror metaforik birlik (nargis ko‘z) hisoblanadi.

Giatsint. Giatsint birligi yunon mifologiyasidagi Apollonning suyukli do‘sti Giatsint (Hyacinthus) ismi bilan bog‘liq antroponimik nominatsiya hisoblanadi. Afsonaga ko‘ra, yosh yigitning vafotidan so‘ng uning to‘kilgan qonidan ushbu gul unib chiqqan, shu sababli lisoniy ongda bu fitonim qayta tug‘ilish va motam ramzi sifatida shakllangan. O‘zbek tilida bu gul sumbul yoki gulsunbul nomlari bilan ham yuritiladi. Leksik-semantik jihatdan giatsint nomi o‘zbek mumtoz she'riyatida yorning zulfiga nisbatan qo‘llaniladigan an'anaviy lisoniy vosita hisoblanadi.

Spatifillyum. Spatifillyum nomi yunoncha spathe ya'ni "qilich-g‘ilof" va phyllon "barg" so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, o‘zbek lingvomadaniyatida ayollar baxti nomi

bilan juda mashhur. Ayollar baxti nomi ushbu gulning xonadonga muhabbat va osoyishtalik olib kelishi haqidagi xalqona kognitiv tasavvurlarga asoslangan mifologik-simvolik nominatsiyadir. O‘simlikning oq guli poklik va ayollik latofati ramzi sifatida idrok etilishi uning lisoniy muomalada ilmiy nomidan ko‘ra xalqona metaforik nomining ustuvorligini ta'minlagan.

Kaktus. Kaktus birligi yunoncha kaktos so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tili lug‘at tarkibida tikangul degan xalqona muqobili bilan ham faol qo‘llaniladi. Tikangul nomi o‘simlikning eng ajralib turuvchi morfologik belgisi bo‘lgan tikanlariga asoslangan bo‘lib, u kaktus so‘ziga nisbatan ko‘proq emotsional va tasviriy bo‘yoqdorlikka ega. Badiiy diskursda bu o‘simlik nomi matonat va himoya ramzi sifatida qo‘llanilishi bilan bir qatorda, uning tikanlari va go‘zal gullari o‘rtasidagi kontrast o‘zbek she'riyatida o‘ziga xos metaforik obrazlarni yaratishga xizmat qiladi.

Xlorofitum. Xlorofitum yunoncha chloros ya'ni "yashil" va phyton ya'ni o‘simlik so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, o‘zbek tilida ko‘pincha o‘rgimchakgul yoki kelinpopuk nomlari bilan yuritiladi. O‘rgimchakgul nomi o‘simlikdan chiqadigan uzun novdalar uchida kichik "bolalari"ning osilib turishi o‘rgimchak to‘rini eslatishiga asoslangan bo‘lsa, kelinpopuk nomi uning dekorativ vizual ko‘rinishiga asoslangan metaforik nominatsiyadir.

Passiflora. Passiflora birligi lotincha passio ya'ni azob-uqubat hamda flos ya'ni gul so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, o‘zbek tilida soatgul nomi bilan keng tanilgan. Soatgul nominatsiyasi gulning murakkab tuzilishi soat siferblatiga o‘xshashligiga asoslangan vizual metaforik nominatsiyadir.

Fuksiya. Fuksiya nomi nemis botanigi va shifokori Leonart fons Fuks sharafiga qo‘yilgan bo‘lib, o‘zbek tilida o‘simlikning o‘ziga xos osilib turuvchi gullari shakliga ko‘ra zirakgul nomi bilan juda mashhur. Zirakgul nomi o‘simlikning shakliy belgisini taqinchoqlarga qiyoslash asosida hosil bo‘lgan metafora bo‘lib, bu nom o‘zbek lisoniy manzarasida fuksiya nomidan ko‘ra kognitiv jihatdan faolroqdir.

Lavanda. Lavanda lotincha lavare ya'ni "yuvish", "poklanish" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, qadimiy dunyoda ushbu o‘simlikdan gigiyenik maqsadlarda va vannalar qabul qilishda foydalanilganiga ishora qiluvchi nominatsiyadir. Bu fitonim bugungi kunda ham o‘zbek lingvomadaniyatida xushbo‘ylik va poklik semasi bilan bog‘liq holda qo‘llaniladi.

Xulosa. Gul nomlarini ifodalovchi birliklarning ma’noviy xususiyatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tili fitonimik tizimida nominatsiya jarayoni turli tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Morfologik belgi, rang, hid, kelib chiqish geografiyasi, shaxs nomi va metaforik o‘xshatish — bularning barchasi gul nomlarini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilidagi gul nomlari nafaqat o‘simliklarning botanik tavsifini, balki xalqning lisoniy tafakkuri, madaniy merosi, mifologik tasavvurlari va

estetik qarashlarini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Aynan shu jihatdan gul nomlarining lingvomadaniy va etimologik tahlili o‘zbek tilshunosligida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. — Toshkent: O‘zME, 2006–2008.
2. Begmatov E. O‘zbek onomastikasi. — Toshkent: Fan, 1992.
3. Xasanov B. Tilshunoslikka kirish. — Toshkent: O‘qituvchi, 2003.
4. Mahmudov N. O‘zbek tili semantikasi. — Toshkent: Fan, 2009.
5. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. — Жиззах: Сангзор, 2006.
6. https://www.etymonline.com — Online Etymology Dictionary.